

Davriy nashrlarga obuna qilish va etkazib berish bo'yicha

Shartnoma 130

2022yil /25/Yanvar

"O'zbekiston pochtasi" AJ nomidan Qashqadaryo filiali Nizomi asosida ish yurituvchi direktor F.G'aniev matnda «Etkazib beruvchi» deb nomlanuvchi bir tomonidan va tashkilot, muassasa, korxona nomidan Yakkabog' tuman madaniyat bo'limi Nizomi asosida ish yurituvchi bo'limmudiri S.Sultanov matnda "Obunachi" deb nomlanuvchi ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Etkazib beruvchi Obunachining talabiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarda chop etiladigan. Etkazib beruvchining obuna katalogiga kiritilgan davriy nashrlarga (bundan buyon tovar) obuna rasmiylashtirish va etkazib berish majburiyatini oladi. xaridor bo'lsa tovari qabul qilish va ushbu shartnoma shartlariga nazarda tutilgan shartlar va tartibda tovar hamda etkazib berish xizmati uchun to'lash majburiyatini oladi.

Ushbu shartnoma doirasida tovar deganda davriy bosma nashrlar - gazeta, jurnal yoki doimiy nom(nom), joriy raqamga ega bo'lgan va yiliga kamida bir marta chop etiladigan boshqa nashr tushuniladi.

1.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tovarlar o'Ichov birligi sifatida kalendar oy ichida chiqadigan bir davriy nashrning tovarlar partiyasi tushuniladi.

1.3. Tovar va xizmatlarning aniq nomi, narxi va boshqa parametrlari shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilovadagi buyurtmanomaga asosan belgilanadi. Tovarlar partiyasining narxi ushbu shartnomaning butun muddati uchun belgilanadi va buyurtmanomada ko'rsatiladi.

1.4. Mazkur shartnoma bo'yicha tovarlarni etkazib berish muddati 01.Fevral 2022 yildan 31.dekabr 2022 yilgacha.

1.5. Etkazib beruvchi davriy nashr chop etilgan kundan boshlab tovari xaridorga qisqa vaqt ichida etkazib berish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.

1.6. Shartnoma bo'yicha xisobot davri 1 (bir) kalendar oy.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Etkazib beruvchining majburiyatları:

2.1.1. Tovarni xaridorga shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda etkazib berish.

2.1.2. Obunachiga hisobot davrida etkazib berilgan tovar partiyalari va etkazib berish xizmati uchun o'rnaltilan tartibda schyot-fakturna taqdim qilish.

2.1.3. Tovarlarni nashriyot tomonidan belgilangan chiqish davriyligiga muvofiq etkazib berish. Tovarlarni etkazib berish etkazib beruvchi tomonidan ish kunlari amalga oshiriladi.

2.1.4. Obunachidan tovari topshirish qabul qilishda miqdori va sifati bo'yicha farq haqida dalolatnama taqdim qilinganda. etkazib beruvchi qonun hujjatlari belgilangan muddatda xaridorning huquqiy talablarini bajarish.

2.1.5. Hisobot oyi davomida qonun hujjatlari talablariga muvofiq tovarlarni o'matgan tartibda etkazib berilishi bilan bog'liq xaridorning talablarini bajarish.

2.1.6. Xaridor tomonidan nuqsonli yoki yaroqsiz tovari almashtirib berish talab qilinganda, so'rov taqdim etilgan kundan boshlab bir oy ichida almashtirish.

2.2. Etkazib beruvchi huquqlari:

2.2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini sifatlari bajarish uchun shartnoma bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot va boshqa ma'lumotlarni obunachidan og'zaki yoki yozma ko'rinishda olish.

2.3. Obunachining majburiyatları:

2.3.1. Etkazib berilgan tovari qabul qilishdan bosh tortishi sabablarini 2 kun ichida asoslash.

2.3.2. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq tovar va etkazib berish xizmatlari uchun to'lovni amalga oshiring.

2.3.3. Agar tovar obunachining pochta qutisiga etkazib berilishi lozim bo'lsa etkazib beruvchiga obunachi pochta qutisining raqami va joylashgan joyini ma'lum qilish.

2.4. Obunachining xuquqlari:

2.4.1. Tovarlar olgandan so'ng, nuqsonlar aniqlanganda o'zining hohishiga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- buyurtmaning narxini nuqsonli tovar narxiga mutanosib ravishda kamaytirish;

- xuddi shunday lekin nuqsonlisi tovar bilan almashtirish;

- nuqsonli tovar uchun to'langan mablag'larni qaytarib olish;

Ushbu talablar xaridorning tegishli da'vo arizasi berilgan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmay bajariladi.

2.4.4. Tovarlar etkazib berilmagan holda olgan obunachi quyidagilardan birini tanlash huquqiga ega:

a) yangi etkazib berish sanasini belgilash;

b) nuqsonli tovar uchun to'langan mablag'larni qaytarib olish;

Bu talablar xaridorning tegishli da'vo arizasi berilgan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmay bajariladi.

3. SHARTNOMA NARXI, HISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Shartnomaning umumiyligi buyurtmanomaga muvofiq 2276956 (Ikkimillion ikki yuz yetmish olti ming to'qqiz yuz ellik olti) sum, shu jumladan QQS 296969 (Ikki yuz to'qson olti ming to'qqiz yuz oltmish to'qqiz) sum.

3.2. Tovar narxi va etkazib berish xizmati etkazib beruvchi tomonidan belgilanadi va buyurtmanomada ko'rsatiladi va ushbu shartnomaning amal qilish davrida o'zgartirilmaydi.

3.3. Xaridor ta'minotchilarga to'lovlarini quyidagi tartibda amalga oshiradi:

- ushbu shartnomaning 100% miqdoridagi avans to'lovi ushbu shartnoma tuzilgan kundan boshlab 7 ish kuni mobaynida etkazib beruvchining bank hisob raqamiga o'tkaziladi.

3.4. Obunachi va etkazib beruvchi o'ttasidagi barcha to'lovlar bank hisob raqamga pul o'tkazish yoki bank kartasi orqali O'zbekiston Respublikasi so'mida amalga oshiriladi.

3.5. Hisobvaraq-fakturlar etkazib beruvchi tomonidan xaridorga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etiladi.

3.6. Tomonlar shartnomaning oxirgi kunida ikki tomon uchun majburiy bo'lgan o'zaro solishtirma dalolatnama tuzishlari to'g'risida kelishib oldilar.

3.7. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan hisob-kitob tartibi etkazib beruvchiga tijorat krediti berish yoki etkazib beruvchidan qonuniy yoki boshqa foizlarni olish uchun asos bo'lmaydi.

4. TOVARLARNI ETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Tovar etkazib beruvchi tomonidan kuyidagi manzillardan biri bo'yicha etkazib beriladi:

- Obunachi tomonidan belgilangan pochta qutisiga;
- Yakkabog' tuman Nurafshon maxallasi 1-uy manzilga, agar ushbu manzilda obunachi tomonidan qabul qilib olivchi mavjud bo'lmasa, tovarlar ushbu ko'rsatilgan manzildagi binoda joylashgan pochta qutisida yoki kirish eshibi oldida qoldiriladi.
- Obunachi o'zi olib ketish sharti bilan Yakkabog' tuman pochtasini manzilga xizmat ko'rsatuvchi aloqa bo'limiga

4.2. Tovarni etkazib berish usuli xaridor tomonidan shartnomaga tuzilgan vaqtida belgilanadi va buyurtmanomada ko'rsatiladi.

4.3. Tovarni etkazib berish etkazib beruvchi tomonidan yoki etkazib beruvchi nomidan uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Tanlangan etkazib berish usuli bo'yicha etkazib berish xarajatlari tovar bahosiga kiritilmaydi.

4.4. Etkazib beruvchi tovarni nashriyotdan yoki tovar chiqaradigan boshqa shaxsdan olingan paytdan boshlab davriy nashrlarning chop etilish chastotasini hisobga olgan holda xaridorga etkazib beradi.

4.5. Hisobot oyi oxirida etkazib beruvchi xaridorga kalendar oyi davomida etkazib berilgan tovar partiyasi uchun schet-faktura yuboradi.

4.6. Etkazib beruvchi belgilangan hujjatlarni xaridorga hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan taqdim etadi.

4.7. Ikki ish kuni ichida xaridor etkazib beruvchi tomonidan yurilgan hujjatlarini ko'rib chiqadi va etkazib berilgan tovarning miqdori bo'yicha e'tiroz bo'lmasa, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiradi va etkazib beruvchiga qaytaradi. Etkazib berilgan tovarning miqdori yoki sifatiga e'tiroz bo'lsa, xaridor xujjatlarga imzo chekishdan bosh tortishga va aniqlangan nomutanosibliklar to'g'risida dalolatnomaga tuzishga haqlidir. Agar xaridordan belgilangan muddatda asosli e'tirozlar olinmasa, hisobot oyi uchun mahsulot xaridor tomonidan izohsiz qabul qilingan deb hisoblanadi.

4.8. Agar obunachi belgilangan muddatda etkazib beruvchiga yozma da'volar qilmagan bo'lsa, etkazib beruvchi tomonidan taqdim qilingan xujjatlarni imzolashdan bosh tortishga xaqli emas.

4.9. Tasodifiy yo'qotish yoki mahsulotga zarar etkazish xavfining xaridorga o'tkazilishi tovarni etkazib berish usuli bo'yicha xaridorga etkazib berish vaqtida sodir bo'ladi. Tovarga bo'lgan egalik xuquqini xaridorga o'tkazilishi schet faktura imzolangan paytdan boshlab sodir bo'ladi.

5. MAHSULOT SIFATI VA QADOQLASH

5.1. Mahsulot etkazib beriladigan va etkazib beriladigan qadoqlash mahsulotni ishlab chiqaruvchi nashriyot tomonidan belgilanadi va amalga oshiriladi.

5.2. Tomonlar xaridorga topshirilgan tovardan maqsadga muvofiq foydalana olmaslikka olib kelgan yaqqol nuqsonlarga ega bo'lgan hollarni tovarlarni qadoqlash shartlari buzilishi deb hisoblashga kelishib oldilar.

6. MAHFIYLIK

6.1. Taraflar bitimni bajarish chog'ida muayyan axborotning maxfiy xususiyatini boshqa tomonga majburiy xabardor qilgan holda bir tomonlama aniqlashga haqlisi.

6.2. Taraflar boshqa tarafning oldindan yozma roziligidan boshqa tarafning kelishuviga binoan olingan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi, uchinchi shaxslarga o'tkazishi yoki o'z maqsadlari uchun foydalanishi mumkin emas.

6.3. Agar maxfiy deb tasniflangan vaqtida u allaqachon uchunchi shaxslar yoki ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilgan yoki ochiqlangan taqdirda tomonlar javobgar bo'lmaydi.

6.4. Ushbu bo'limda belgilangan shartlar shartnomaga muddati davomida ham, kelishuv bekor qilingan kundan boshlab 3 (uch) yil mobaynida ham tomonlar uchun har qanday sababga ko'ra majburiyidir.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Tomonlar ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi va ushbu shartnomaga muvofiq javobgardirlar.

7.2. Etkazib beruvchi davriy nashrlarni chiqishi to'xtatilishi yoki to'xtatib turilish, kechikishi, shuningdek taxririyat tomonidan bir tomonlama davriy nashrlarning chiqish davriyligi o'zganligi belgilangan muddatda chiqarilmasligi va soni yoki sifat tasniflari o'zgartirilganligi bilan bog'liq majburiyatlarni bajarish imkonisiz hollarda javobgar emas.

7.3. Etkazib beruvchi tovarning mazmuni, shakli yoki boshqa mazmuni uchun obunachiga javobgar emas.

7.4. Tovar parametrлari (shakl, mazmun, davriy nashrlarning chiqish davriyligi yoki mahsulot chiqarishni kechiktirish) o'zgarganda xaridor bevosita taxririyatga yoki davriy nashrlarni chiqarayotgan shaxsga da'vo qilish huquqiga ega.

7.5. Etkazib beruvchi ushbu shartnomaning 3.3-bandiga muvofiq xaridorning tovar uchun haq to'lash majburiyatlarini bajarmaganligi munosabat bilan bunday huquqbuzarlik sodir etilgan hollarda tovar etkazib berish shartlarini buzganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

7.6. Etkazib beruvchi obunachining davriy nashrlari olinmaganligi yoki to'liq olinmaganligi uchun javobgardir va 30 kun ichida xaridor tomonidan qabul qilinmagan mahsulotni etkazib berish bo'yicha xaridorning huquqiy talablarini bartaraf etadi.

7.7. Ushbu shartnomaning 7.6-bandiga muvofiq etkazib beruvchining tovar etkazib berish talablarini buzganligi bilan bog'liq da'volari xaridor tomonidan tovar etkazib berilgan kalendar oy ichida taqdim etilishi kerak. Bunday da'volar bo'lmagan taqdirda, kalendar oyining oxirida etkazib beruvchi xaridorning hisobot davrida tovar etkazib berish tartibini buzish bilan bog'liq da'volarini qabul qilmaydi va javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.8. To'lov shartlari, shu jumladan, avans to'lovinining ushbu shartnomaga doirasida amalga oshirmaganlik uchun obunachi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarda belgilangan tartibdajavobgar bo'ladi.

7.9. Agar tomonlardan biri ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlarning bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi ikkinchi tomonning aybi tufayli sodir etilganligini isbotlasa, javobgar tomon javobgarlikdan ozod etiladi.

7.10 Obunachi tomonidan nashrlarni etkazib berish manzillari, telefon raqami, noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, etkazib berilmagan nashrlar uchun etkazib beruvchi javobgar bo'lmaydi. Obunachining manzili o'zgargan taqdirda etkazib beruvchiga yozma ravishda xabar berishi shart.

8. FORS-MAJOR

8.1. Tomonlar o'z ixtiyorlarida bo'limgan fors-major holati, ya'ni zilzila, suv toshqini, yong'in, tabiiy ofatlar, epidemiya, harbiy harakatlар, hukumatning ayrim faoliyat turini ta'qiqlovchi qarorlari sababli shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar. Bunda, o'ziga nisbatan fors-major holati yuzaga kelgan tomon ikkinchi tomonni 24 soat ichida yozma ravishda ogohlantirishi lozim. SHartnomani bajarish muddati, tomonlar kelishuviga ko'ra fors-major holati muddatiga uzaytirilishi yoki shartnoma bekor qilinishi mumkin.

9. SHARTNOMA MUDDATI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

10.1. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan keyin kuchga kiradi va 31 Dekabr 2021yilgacha va hisob-kitoblar jihatidan, ularning to'liq amalga oshirilgunga qadar amal qiladi. SHartnomaning bekor qilinishi tomonlarning shartnoma bo'yicha bekor qilingunga qadar yuzaga kelgan majburiyatlari bekor qilinishiga sabab bo'lmaydi.

10.2. Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartish va qo'shimchalar yozma ravishda amalga oshirilib, har ikki tomon tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi. Tomonlarning tegishli qo'shimcha kelishuvlari shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

10.3. Tomonlar shartnomani (shartnomani bajarish) butunlay bir tomonlama bekor qilish huquqiga egadirlar.

10.4. Shartnoma bir tomonlama bekor qilish, bir tomon ikkinchi tomonga yozma xabarnoma yuborishi yo'li bilan amalga oshirilishi lozim. Agar xabarnomada boshqacha belgilanmagan bo'lsa, shartnoma ushbu xabarnoma olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan keyin bekor qilinadi.

10.5. Taraflar shartnomadan qisman bir tomonlama voz kechishga (shartnomani bajarishga) haqli emas.

10.6. Shartnomaga har qanday o'zgartish va qo'shimchalar yozma ravishda kiritilib, taraflarning tegishlich va kolatliliklari tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi. Bu holda taraflarning vakolatliliklari tegishli tarafning Ustavi (boshqa ta'sis hujjati) asosida harakat qiluvchi shaxslar, shuningdek o'matilgan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnomasi asosida harakat qiluvchi shaxslar hisoblanadi.

10.7. Tomonlar kelishuvni imzolagandan so'ng, u bo'yicha barcha dastlabki muzokalar, yozishmalar va dastlabki kelishuvlar yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

10. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

10.1. Shartnoma bandlarini bajarish yuzasidan kelishmovchiliklar kelib chiqgan taqdirda, tomonlar ularni muzokara yo'li bilan hal etishni zimmalariga oladilar. Shunda umumi yechimga kelishning imkoniyati bo'lmasa, masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida Yakkabog' tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

11. BOSHQA QOIDA VA SHARTLAR

11.1. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada, taraflarning har biri uchun bittadan oddiy yozma shaklda tuziladi.

11.2. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqariladi va sharhanadi. SHartnomada ko'rsatilmagan hamma narsada tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslanadi.

11.3. Agar tomonlardan biri pochta, aloqa va/yoki to'lov rekvizitlarini o'zgartirsa yoki qayta tashkil etish yo tugatilishi lozim bo'lsa, boshqa tomonni ushbu o'zgarishlar kuchga kirgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart (qayta tashkil etish yoki tugatish holatida tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida). Taraflardan birining ushbu bandda nazarda tutilgan majburiyatning boshqa taraf tomonidan bajarilmastigi bilan bog'liq zararlari aybdor shaxs tomonidan qoplanadi.

12. TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI:

"BAJARUVCHI"

"O'zbekiston pochtasi" AJ

Yakkabog' pochta aloqa bog'lamasi

Manzil: Yakkabog' tuman A.Temur ko'chasi 79-uy

H/r: 2261 2000 1001 5526 6275

ATB "Aloqabank"ning

Amaliyot boshqarmasi

MFO: 00169;

OKED: 52100

INN: 200 833 833

Telefonlar:

Obuna bo'limi:

Buxgalteriya:


SHartnoma bo'limi:

Iqtisod bo'limi/

Faks

Veb-sayt: www.pochta.uz

Direktor



"BUYURTMACHI"

Nomi: Yakkabog' tuman madaniyat bo'limi

Manzili: Yakkabog' tuma Nurafshon maxallasi 1-uy

Tel: 90-729-8091, 91-955-07-84

X/R: 100022860102507082310056001

STIR: 200710883, OKONX: 84112, MFO:00014

Moliya vazirligi g'aznachiligi

Kx/sch:23402000300100001010

MB BB XXXM Toshkent sh

MFO:00014 STIR:20122919

Bo'lim mudiri:



S.Sultanov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi:

Davriy nashrlarga obuna qilish va yetkazib berish to'g'risida shartnoma;

2. Loyihaning nomi:

"O'zbekiston pochtasi" AJ Yakkabog' pochta aloqa bog'lamasi "yetkazib beruvchi" hamda Yakkabog' tuman madaniyat bo'limi "obunachi" o'rtasida shartnoma umumiy bahosi 2 276 956 (ikki million ikki yuz yetmish olti ming to'qqiz yuz ellik olti) so'm bo'lgan davriy nashrlarga obuna qilish va yetkazib berish to'g'risida;

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:

Yakkabog' tuman Madaniyat bo'limi tomonidan markazga 24 yanvar 2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti

24.01.2022 yil



Sh. A. Xolmirzayeva